Annotatsiya: Maqolada BMTning barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda “ESG” yondashuvning o’rni va ahamiyati, “yashil” iqtisodiyotga o’tishda investorlar tomonidan kompaniyalarga “ESG” yondashuv asosida investitsiya kiritish mezonlari, ESG omillar va ular bilan bog’liq risklarning tasniflanishi, milliy kompaniyalar faoliyatida “ESG” yondashuvni qo’llashning afzalliklari yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: ESG omillar, ESG-risklar, “yashil” iqtisodiyot, moliyaviy vositalar, “yashil” investitsiyalar, mas’uliyatli investitsiyalar, ijtimoiy mas’uliyatli investitsiyalar, “yashil” moliyalashtirish, “yashil” loyihalar.

Abstract: The article discusses the role and importance of the “ESG” approach in ensuring the implementation of the objectives set for the UN sustainable development goals, the criteria for investing in companies based on the “ESG” approach by investors during the transition to a “green” economy, the classification of ESG factors and associated risks, the advantages of using the “ESG” approach in the activities of national companies are highlighted.

Key words: ESG factors, ESG risks, green economy, financial instruments, green investments, responsible investments, socially responsible investments, green financing, green projects.

Аннотация: В статье рассмотрены роль и значение “ESG” подхода в обеспечении реализации задач, поставленных перед целями устойчивого развития ООН, критерии инвестирования в компании на основе “ESG” подхода инвесторами при переходе к “зеленой” экономике, классификация ESG-факторов и связанных с ними рисков, выделены преимущества применения “ESG” подхода в деятельности национальных компаний.

Ключевые слова: ESG-факторы, ESG-риски, “зеленая” экономика, финансовые инструменты, “зеленые” инвестиции, ответственные инвестиции, социально-ответственные инвестиции, “зеленое” финансирование, “зеленые” проекты.

KIRISH

Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi va yildan yilga aholi sonining o’sishi iqtisodiyot tarmoqlari va uy xo’jaliklarining resurslarga bo’lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda. Buning natijasida atrof-muhitga salbiy ta’sir qiluvchi omillar ko’paymoqda va tabiatga issiqxona gazlarining chiqishi tobora ortib bormoqda.

Dunyo miqyosida iqlim o’zgarishi va COVID-19 pandemiyasi ta’sirida ro’y berayotgan salbiy holatlar tufayli iqtisodiy o’sishni ta’minlashi mumkin bo’lgan yangi manbalar va yondashuvlarni qayta ko’rib chiqish zaruriyati paydo bo’lmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasini joriy etish bo’yicha strategik maqsadlar va chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligining past darajada ekanligi, asosiy vositalarning eskirish darajasining yuqoriligi va ularni yangilariga almashtirish jarayonining sustligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga xususiy biznesni faol jalb qilmaslik holatlari mamlakatni barqaror rivojlantirish borasidagi ustuvor hisoblangan milliy maqsadlar va vazifalarni amalga oshirishga g’ov bo’lmoqda.

Ko’p yillar mobaynida jahon amaliyotida iqtisodiyot tarmoqlariga sarmoya kiritish orqali bir paytning o’zida ijobiy ijtimoiy va ekologik natijaga erishish hamda foyda olish imkonini beruvchi yagona yondashuv bo’lmagan. Global miqyosda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqishda xususiy sektor ustunlik qilar ekan, xususiy biznes vakillari har doim foyda olishni asosiy maqsad bilib, ijtimoiy va ekologik natijaga yetarlicha e’tibor qaratmagan. Shu bilan birgalikda, ko’p hollarda, davlatga qarashli sanoat korxonalarida rentabellik darajasi past bo’lganligi sababli bir paytning o’zida ekologik va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoni bo’lmagan. Yuqorida qayd etib



o'tilgan omillar ta'sirida mamlakatlarga xos bo'lgan ekologik va ijtimoiy muammolar dunyo miqyosidagi global muammoga aylandi. O'z navbatida, bunday muammolar moliyaviy vositalarning yangi turlari paydo bo'lishiga xizmat qilib, investorlar uchun investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonini mazmunan to'ldirib bormoqda. Bulardan biri ESG mezonlariga asoslangan biznes yuritish strategiyasi bo'lib, tadqiqotimiz aynan shu yo'nalishga qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Olib borilgan izlanishlar natijasida global miqyosda barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lidagi xatti-harakatlar natijasida yangi moliyalashtirish vositalari yuzaga kelganligini, institutsional investorlar tomonidan kompaniyalarga investitsiya kiritishda ularning ESG, ya'ni ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarga tayangan holda faoliyat yuritishga asosiy urg'u berayotganligi, xalqaro moliya institutlari kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlariga oid bo'lmagan, xususan, ESG yondashuvlarga taalluqli ma'lumotlarni ochiqlovchi qo'llab-quvvatlayotgani, bu yondashuvni ko'pchilik hukumatlar davlat siyosati darajasiga olib chiqqanligining guvohi bo'ldik. Yuqorida qayd etib o'tilgan dalillarni quyidagi manbalar tasdiqlaydi.

Hozirgi davrda moliya sohasining barcha bo'g'inlaridagi o'zgarishlar ularga barqaror rivojlanish vositalarini kiritish orqali amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda barqaror rivojlanish faqat konsepsiya sifatida qayd etilmasdan, biznes va investitsiya olamiga amaliy yo'naltirilgan asosiy oqimga aylandi. Bu esa, o'z navbatida mas'uliyatli investitsiyalash (ESG) bozorini samarali shakllantirish va rivojlantirishni talab etadi ^[1].

Kompaniyalarda ESG yondashuvlarni qo'llash tashqi omillar ta'sirida yuz bermoqda, shu bilan birga, bu sohada davlat siyosati va xorijiy investorlar qiziqishining ortib borishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda ^[2].

Mas'uliyatli investitsiyalar yoki ESG investitsiyalari investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarga tayanadi. Axborotlashgan jamiyatga o'tish va insonlarning turmush tarzini yaxshilash bosqichida investorlar investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligini baholashda iqtisodiy samaradorlikka asosiy omil sifatida qaramasdan, shu bilan birgalikda axloqiy qadriyatlar va shaxsning ma'naviy rivojlanishi kabi mezonlarni ustuvor yo'nalish sifatida bilmoqda. Iqtisodiy agentlar investitsiya qarorlarini qabul qilishda nafaqat kompaniya moliyaviy ko'rsatkichlarining barqaror o'sishga, shuningdek, kompaniya moliyaviy ko'rsatkichlariga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlar, xususan, ushbu kompaniyalarning atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy mas'uliyat borasidagi faoliyati tamoyillariga tayanib ish tutmoqda ^[3].

Institutsional innovatsiyaning bir turi sifatida "yashil" moliyalashtirish siyosatini qo'llash atrof-muhitni ko'proq ifloslantiradigan kompaniyalar uchun moliyaviy cheklovlarning kuchayishga olib kelmoqda. Bu esa, kompaniyalarning atrof-muhitni ifloslantirish borasidagi harakatlarini ijobiy tarafga o'zgartirishi mumkin. Moliyaviy institutlar va korxonalarni "yashil" moliyalashtirish siyosati orqali ko'proq ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga undash resurslarni taqsimlash va "yashil" rivojlanish samaradorligini oshirishning samarali usuli bo'lishi mumkin ^[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini barqaror rivojlanish konsepsiyasida ko'zda tutilgan "yashil" iqtisodiy taraqqiyotga erishish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirish bilan bog'liq nazariy qoidalarni o'z ichiga oladi. Ilmiy izlanish jarayonida iqtisodiy hodisalarni o'zaro bog'liq holda dinamik ravishda o'rganish imkonini ochib beruvchi dialektika usulidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida izlanish obyektiga nisbatan tizimli yondashuv sifatida grafik usullar, guruhlash va taqqoslash, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keyingi paytlarda rivojlangan mamlakatlarda institutsional investorlar kompaniyalarga investitsiya kiritishda ularning an'anaviy moliyaviy hisobotlari va moliyaviy ko'rsatkichlari bilan cheklanib qolmayapti. Ko'pchilik investorlar kompaniya faoliyati to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lishga qiziqmoqda. Bu qiziqish kompaniyaning atrof-muhitga ta'siri, ishchi-xodimlarga yaratilgan shart-sharoitlar va kompaniya biznes etikasiga oid ma'lumotlarning ochiqlovchi bilan bog'liq bo'lmoqda.

Bu borada BMT sobiq Bosh kotibi Kofi Annan jahondagi yirik kompaniyalar boshqaruvchilariga iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish maqsadida kompaniyalar strategiyasiga ESG tamoyillarini joriy qilish yuzasidan tashabbus bilan chiqqan ^[5]. Mazkur taklifga javoban 2004-yilda 20 ta yirik moliya muassasalari tomonidan "Moliyaviy sektor uchun tayyorlangan tavsiyalar" hisobotida ESG termini va tamoyillari qayd etilgan hamda ijtimoiy mas'uliyatli investorlar uchun ko'rsatma sifatida tayyorlangan. ESG tamoyillari yangi moliyaviy vositalar va mezonlarning paydo bo'lishi hamda rivojlanishi uchun qo'shimcha zamin yaratdi. Shuningdek, atrof-muhitning ifloslanishi, global isish, boy va kambag'al mamlakatlar o'rtasidagi o'sib borayotgan iqtisodiy tengsizlikka qarshi kurashish vositasi sifatida paydo bo'ldi.



“ESG” qisqartma atamasi inglizcha “Environmental, Social and Governance” soʻzlardan olingan boʻlib, oʻzbek tilida “Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv” maʼnolarini anglatadi. Oddiy qilib aytadigan boʻlsak, ESG – biznesni yuritishda kompaniyaning tabiatga, ishchi-xodimlarga va jamiyatga hurmat koʻrsatishini oʻzida mujassamlashtirgan strategiyani anglatadi. Keng maʼnoda esa, ESG – bu tijorat faoliyatining barqaror rivojlanishi boʻlib, u atrof-muhitga masʼuliyat bilan yondoshish, yuqori darajadagi ijtimoiy masʼuliyat va yuqori sifatga ega boʻlgan korporativ boshqaruv tamoyillarini qoʻllashga asoslanadi. “ESG” tamoyillariga asoslangan investitsiyalar koʻpincha barqaror investitsiyalar deb ham ataladi. Investitsiyalashning bunday shaklida kompaniyaning moliyaviy va moliyaviy boʻlmagan (ESG) maʼlumotlari tahliliga asoslangan holda qarorlar qabul qilinadi.

Oʻz navbatida “ESG” tarkibi ekologik (E), ijtimoiy (S) va boshqaruv (G) omillari yigʻindisidan iborat boʻlib, investorlar tomonidan kompaniyaga investitsiya kiritish yuzasidan qaror qabul qilishda moliyaviy hisobotlar hamda yuqorida qayd etilgan uchta omil va ularning tarkibiga kiruvchi kichik omillar tahliliga asoslanadi. Mazkur “ESG” omillar tarkibi quyida keltirilgan (1-rasm).

Ekologik (E) omillar	Tabiiy resurslarning kamayishi;
	Taʼminot zanjirining ekologiyaga taʼsiri;
	Chiqindilar va zararli gazlarni boshqarish;
	Iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashish;
	Taʼminot zanjiriga ijtimoiy taʼsir;
Ijtimoiy (S) omillar	Oʻrmonlarning qisqarishi va yoʻqolishi
	Insonning haq-huquqlari;
	Inson kapitali qiymati;
	Mahalliy oʻzini-oʻzi boshqarish jamiyatlari;
	Mahsulotning sifati;
Boshqaruv (G) omillari	Ish joyidagi shart-sharoitlar va xavfsizlik;
	Gender tarkibi
	Sogʻlom raqobat muhiti;
	Soliq tizimining shaffofligi;
	Risklarni boshqarish;
	Korrupsiyaga qarshi kurashish;
	Biznes etikasi;
	Korporativ boshqaruv.

1-rasm: ESG omillarning tasniflanishi¹

Rasmda keltirilgan “ESG” omillarga eʼtiborimizni qaratadigan boʻlsak, ekologik (E) omillar toifasiga tabiiy resurslarning kamayishi, taʼminot zanjirlarining ekologiyaga taʼsiri, chiqindilar va zararli gazlarni boshqarish, iqlim oʻzgarishlariga qarshi kurashish hamda oʻrmonlarning qisqarishi va yoʻqolib ketishining oldini olish kabi yoʻnalishlar kiritilganligiga guvoh boʻlishimiz mumkin. Ijtimoiy (S) omillar guruhiga esa, insonlarning haq va huquqlari, inson kapitalining qiymati, mahalliy oʻzini-oʻzi boshqarish jamiyatlari, mahsulot sifati, ishchi va xodimlar uchun ish joyidagi shart-sharoitlar va xavfsizlik masalalari, gender tarkibi kabi omillar kiritilgan. Boshqaruv (G) omillari tarkibida sogʻlom raqobat muhiti, soliq tizimining shaffofligi, risklarni boshqarish, korrupsiyaga qarshi kurashish, biznes etikasi va korporativ boshqaruv omillari joy olgan.

“ESG” omillar qoʻllanilishini sanoat korxonalari misolida koʻrib chiqadigan boʻlsak, ekologik (E) omillar tahlil qilinganda kompaniyaning issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarishi natijasida atrof-muhitga taʼsiri, tabiiy resurslarning ishlatilishi natijasida suv manbalarining ifloslanishi, flora va faunaga salbiy taʼsir koʻrsatishi, zaharli va radiatsiyaga ega chiqindilarning chiqarilishi, mahsulotni qadoqlash uchun zararli ximiyaviy vositalardan foydalanish hisobiga atrof-muhitning ifloslanishi, ishlab chiqarish jarayonida “yashil” texnologiyalarni qoʻllash, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash asosida tayyor mahsulot yaratish kabi koʻrsatkichlarning son, miqdor va sifat koʻrsatkichlariga tayaniladi (2-rasm).

¹ The Sustainable Investment Forum (ussif.org) maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**Ekologik (E) omillar**

- Kompaniyaning dunyo iqlimiga ta'siri (issiqxona gazlarining atmosferaga chiqarilishi);
- Tabiiy resurslarning ishlatilishi (suv manbalarining ifloslanishi, flora va faunaga salbiy ta'siri);
- Atrof-muhitning ifloslanishi (zaharli va radiatsiyaga ega chiqindilar, mahsulotni qadoqlash uchun zararli ximiyaviy vositalardan foydalanish);
- "Yashil" texnologiyalardan foydalanish (qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash asosida mahsulot yaratish).

Ijtimoiy (S) omillar

- Xodimlarga munosabat (mehnat muxofazasi, sog'liqni saqlash, xodimning lavozim bo'yicha o'sish imkoniyatlari, ish joyidagi shart-sharoitlar);
- Mahsulot ishlab chiqarishdagi mas'uliyat (mahsulot sifati, axborot xavfsizligi, ishonchlik, mas'uliyatli investitsiyalar);
- Ijtimoiy imtiyozlar (xodimlar bilan muloqotni ta'minlash, moliyaviy yordam dasturlari, xodimlar sog'ligini qo'shimcha sug'urtalash, ishda ovqatlanishni ta'minlash).

Boshqaruv (G) omillari

- Kompaniyaning boshqarish (ijro organlarining faoliyati, boshqaruv kengashi samaradorligi, mustaqil audit, kompaniyaning qiziquvchi tomonlar uchun ochiqdirligi);
- Kompaniya hatti-harakati yo'nalishi (ishbilarmonlik obro'si, korporativ etika, soliq sohasidagi shaffoflik, korruptsiyaning mavjud emasligi, bozorda sog'lom raqobat).

2-rasm: Kompaniyaning ESG omillarga amal qilishini baholash²

Kompaniyadagi ijtimoiy (S) omillarga baho berilganda esa, ishchi va xodimlarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning sog'ligini saqlash, xodimning lavozim bo'yicha o'sish imkoniyatlari, ish joyidagi shart-sharoitlar bilan bog'liq ishchi va xodimlarga bo'lgan munosabatga, mahsulot sifati, axborot xavfsizligi, ishonchlik, mas'uliyatli investitsiyalar kiritish bilan bog'liq mahsulot ishlab chiqarishdagi mas'uliyatga, shuningdek, ishchi-xodimlar bilan ochiq muloqotni ta'minlash, ularga moliyaviy yordam ko'rsatish dasturlarining mavjudligi, ishchi va xodimlar sog'ligini qo'shimcha sug'urtalash hamda ishda ovqatlanish imkoniyatlarini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy imtiyozlarning joriy qilinganligiga e'tibor qaratiladi.

Kompaniyada "ESG" omillar tarkibidan o'rin olgan boshqaruv (G) omillari qo'llanilishi o'rganilganda ijro organlarining faoliyati, boshqaruv kengashi samaradorligi, mustaqil auditning yo'lga qo'yilganligi, kompaniyaning qiziquvchi tomonlar uchun ochiqdirligi bilan bog'liq kompaniyaning boshqarish jarayonlariga, shuningdek, kompaniyaning ish bilarmonlik obro'si, korporativ etikaning qo'llanilishi, soliqlarni to'lash jarayonidagi shaffoflik, korruptsiyaga yo'l qo'ymaslik, bozorda sog'lom raqobat yuritish bilan bog'liq kompaniyaning xatti-harakati yo'nalishlariga baho beriladi.

Biror bir kompaniyaning "ESG" omillarga amal qilishiga baho berilganda kompaniya tomonidan har uchta, ya'ni E, S va G mezonlarga amal qilgani, ularning bajarilishida tenglik (balans) ta'minlanganligiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Endi e'tiborimizni ESG omillar bilan bog'liq risklar tahliliga qaratamiz. Kompaniyalar faoliyatida ESG omillar bilan bog'liq risklar – kompaniyaning atrof-muhitga, ijtimoiy sohaga, boshqaruv jarayoniga ta'siri bilan bevosita bog'liqdir. ESG risklar kompaniyaning aktivlari va moliyaviy holatiga, shuningdek, foydasi va obro'siga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kompaniya faoliyatiga ESG omillar bilan bog'liq risklarning ta'sir ko'rsatish doirasi quyidagi rasmda keltirilgan (1-jadvalga qarang).

Mazkur xavf-xatarlar ESG tamoyillarini qo'llashni istamayotgan kompaniyalarda ko'proq kuzatilishi mumkin. Biroq kompaniyalar faoliyatida ESG – risklarining ortib borayotgan roli ularning qo'shimcha yo'nalishlarini aniqlash, baholash va ularni an'anaviy risklarga o'tkazishni talab qiladi.

Iqlim o'zgarishlari natijasida ishlab chiqarish quvvatlari va infratuzilmani yo'qotish ehtimoli hozir ham, kelgusi o'n yilda ham ro'y berishi mumkin bo'lgan eng muhim risklardan biri sifatida qaralmoqda. Masalan, dunyo bo'yicha 2019-yilda ekstremal ob-havo 100 mlrd. AQSH dollari miqdorida zarar yetkazdi. 2022-yilning birinchi yarmida esa, bu ko'rsatkich 65 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. 2050-yilga kelib bunday talofatlardan ko'rildigan ziyon 8 trln. AQSH dollarga yetishi mumkin. Bu esa, jahon YAIMning 3%ga teng bo'lgan yo'qotishlarga olib keladi [6].

2012-yilda BMT tashabbusi bilan o'tkazilgan "Rio+20" konferensiyasida barqaror rivojlanish konsepsiyasi qabul qilingandan so'ng, investitsiyalashning yangi, ya'ni barqaror yoki mas'uliyatli investitsiyalash modeli paydo bo'ldi. Mas'uliyatli investitsiyalarni kiritishdan maqsad investor tomonidan faqat foyda olishni ko'zlash emas, shu bilan birgalikda kompaniyada ijobiy ijtimoiy o'zgarishlarga erishish, tabiiy atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va axloqiy me'yorlarga amal qilish hisoblanadi.

² The Sustainable Investment Forum (ussif.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval: Kompaniya faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ESG omillar bilan bog'liq risklar³

ESG omillar	Risklar
Ekologik (E)	
Issiqxona gazlarining chiqishi	zaharli gazlar chiqarganlik uchun soliqlar bo'yicha to'lovlar ortishi riski; zaharli gazlarni me'yordan ortiq chiqarganlik uchun mahsulotni ishlab chiqarish va faoliyatni to'xtatib qo'yish riski.
Iqlim o'zgarishi	Tabiiy ofatlar (yong'in, suv toshqini va h.k.) natijasida zarar ko'rish bilan bog'liq risklar.
Atrof-muhitning ifloslanishi (chiqindilar)	Jarimalar, faoliyatni to'xtatib qo'yish yoki ta'qiqlash. Kompaniya obro'sining tushib ketishi. Avariya natijasida atrof-muhitning ifloslanishi.
Tabiiy resurslarning ishlatilishi	Qayta tiklanmaydigan qazilma boyliklarining kamayib ketishi. Qayta tiklanadigan resurslarning yo'qolishi (yerlarning sho'rlanishi, o'rmonlarning kesilishi). Bioxilma-xillikning yo'qolishi.
Ijtimoiy (S)	
Xodimlar bilan munosabatlar	Malakali xodimlarning ishdan ketib qolishi. Xodimlarga motivatsiyaning yo'qligi. Sog'liqqa zarar yetkazish riski.
Hamkorlar bilan munosabatlar	Mahsulotni ishlab chiqarish muddatlarining uzayishi yoki ishlab chiqarishning to'xtab qolish riski.
Iste'molchilar bilan munosabatlar	Tovar va xizmatlar sifatining tushib ketishi riski. Kompaniya obro'sining pasayishi riski.
Korporativ boshqaruv (G)	
Strategiya	Biznesning investitsiya jozibadorligi va aksiyalar qiymatining pasayishi riski.
Boshqaruv organlari tarkibi va tuzilishi	Boshqaruvchilarning yetarlicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'lmasligi riski.
Kompaniya xatti-harakati yo'nalishi	Kompaniya ishbilarmonlik obro'sini yo'qotish riski.
Shaffoflik va risklarni boshqarish	Ma'lumotlarni to'liq oshkor qilmaslik, o'z majburiyatlarini bajara olmaslik riski.

Yirik investorlar tomonidan investitsiya kiritishda nafaqat ko'zda tutilgan ma'lum bir daromadni olish, shuningdek, investitsiya kiritilayotgan kompaniyaning ijtimoiy, ekologik va axloqiy jihatdan bir qator mezonlarga muvofiqligi hamda korporativ boshqaruv borasida muayyan qoidalarga mos kelishi talabi qo'yila boshlandi. Mazkur jarayon 1960-yillarda Yevropa va Shimoliy Amerikada rivojlandi.

Investorlarni investitsiya kiritishga oid o'z yondashuvlarini o'zgartirishga majbur qilgan sabablardan biri aynan ESG tamoyillariga amal qilgan holda investitsiyalashga ongli ravishda o'tishi hisoblanadi. Shunday qilib, ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar biznesning atrof-muhit va jamiyatga ta'siri katta ekanligini anglagan holda yuzaga keldi va bu ta'sir mas'uliyat asosida bo'lishi qonuniyatga aylandi. Biznes vakillari bunday ta'sirning oqibatlarini yaxshi tushungan holda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ijtimoiy, ekologik va boshqaruv omillari bo'yicha mas'uliyat hisobotini yuritishga o'tishi zarur bo'ladi.

Shuni qayd etish kerakki, dunyoning yetakchi mamlakatlari biznes vakillari tomonidan ijtimoiy mas'uliyatli boshqaruvni amaliyotga joriy etish va ijtimoiy mas'uliyatli xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan cho'ra-tadbirlar to'plamini ishlab chiqmoqda va milliy tartibga solish amaliyotiga kiritmoqda.

Ayni paytda mas'uliyatli investitsiyalash tushunchasi to'g'risida yagona yondashuv va uning tarkibiy tuzilishini izohlab beruvchi yakuniy tavsif mavjud emasligini qayd etib o'tish joizdir. Investorlar ESG omillardan qaysi birini o'zlari uchun eng muhim, deb hisoblasa, aynan shu omil yetakchilik qiladigan mas'uliyatli investitsiyalash turiga investitsiya kiritmoqda. Bunday mas'uliyatli investitsiyalash turlari quyidagi rasmda keltirilgan (2-jadval).


Jahon banki hisobotlarida tematik obligatsiyalar GSS, GSS+, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillariga asoslangan (ESG) yoki barqaror obligatsiyalar sifatida ham e'tirof etiladi. Barqaror moliyalashtirish vositasi sifatida tematik obligatsiyalar tarkibiga "yashil", ijtimoiy, barqaror va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan obligatsiyalar kiradi. O'z navbatida, "ko'k" obligatsiyalarni "yashil" obligatsiyalar toifasiga, gender obligatsiyalarini esa, ijtimoiy obligatsiyalar toifasiga kiritish mumkin.

3 <https://cgi-russia.ru/> ESG 2022: aktualnye riski i novye vozmozhnosti dlya ustoychivogo razvitiya kompaniy. 10.11.2022. –s. 5.

2-jadval: Mas'uliyatli investitsiyalash turlari⁴

Investitsiya turlari	Investitsiya kiritish sabablari	Investorlar turi	Investitsiyalash tavsifi
Ijtimoiy o'zgarishlarga olib keluvchi investitsiyalar (Impact investing)	Kompaniyaga investitsiya kiritish orqali daromad olish hamda ijtimoiy soha va atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatish	Xususiy investorlar, boshqaruv kompaniyalari	O'z jamg'armalari yoki pensiya jamg'armalarining bir qismini investitsiya tariqasida kiritayotgan jismoniy shaxslar
Barqaror investitsiyalar (Sustainable investing)	Investitsiyalash maqsadida barqaror rivojlanish borasidagi yetakchi kompaniyalarni qidirish va tanlab olish	Banklar, Xalqaro moliya institutlari, xususiy jamg'armalar	Past va o'rta daromadga ega aholi toifasiga moliyaviy xizmatlardan teng huquqli foydalanishga imkon berish
Ethical investing	Investitsiya kiritish maqsadida biznes etika mezonlari to'g'ri keladigan kompaniyalar tanlab olinadi	Jamg'armalar, boshqaruv kompaniyalari, investitsiya banklari	ESG mezonlari va qadriyatlariga mos keladigan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash
Yashil investitsiyalar (Green investing)	Ishlab chiqaradigan mahsuloti (ish va xizmatlari) atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan kompaniyalarga yoki "yashil" texnologiyalar (energiya va resurs tejankor)ga investitsiya kiritish	Xususiy jamg'armalar, boshqaruv kompaniyalari, investitsiya banklari	Biznes etikasi bilan bog'liq maqsadlarda investitsiya kiritish
Aniq maqsadga qaratilgan investitsiyalar (Mission-related investing)	Investorning aniq maqsadiga mos keladigan investitsiyalar	Xususiy jamg'armalar, Sug'urta kompaniyalari	Kompaniyaning ESG mezonlari bo'yicha o'rnatgan siyosatiga mos keluvchi loyihalarga investitsiya kiritish
Qadriyatlarga asoslangan investitsiyalar (Values-based investing)	Investor tomonidan qabul qilingan qadriyatlarga asoslangan investitsiyalar	Pensiya jamg'armalari, xususiy jamg'armalar	Kompaniyaning ESG mezonlari bo'yicha o'rnatgan siyosatiga mos keluvchi loyihalarga investitsiya kiritish
Investitsiya jamiyati (Community investing)	Jamiyatni rivojlantirishni ko'zda tutuvchi investitsiyalar	Mahalliy jamiyatni rivojlantiruvchi moliya institutlari	Mahalliy jamiyatni rivojlantirish maqsadida mahalliy kompaniyalar va fuqarolar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy qo'llab-quvvatlash

Tematik obligatsiyalar – bu kapital bozorlarida chiqariladigan va belgilangan daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Bunday obligatsiyalar aniq yo'nalishdagi mavzular bilan bog'liq tadbirlarni, xususan, iqlim o'zgarishlari, ta'lim, uy-joy, okean va dengiz muhitini saqlash, tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlantirish bilan bog'liq loyihalarni yoki faoliyatni moliyalashtirish maqsadlarida chiqariladi.



3-rasm: 2012-2022-yillarda tematik obligatsiyalarning global bozori (mlrd. AQSH dollarida)⁵

4 https://unpri.org/ESG/definitions_for_responsible_investment_approaches_final_256878.pdf. Ma'lumotlaridan foydalangan holda muallif tomonidan tuzilgan.

5 <http://www.worldbank.org/sustainablefinanceadvisory>



E'tiborimizni 2012-2022-yillar bo'yicha tematik obligatsiyalar global bozori ma'lumotlariga qaratadigan bo'lsak (3-rasm), 2012-2022-yillarda "yashil", ijtimoiy, barqaror va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan toifaga oid chiqarilgan obligatsiyalar umumiy hajmi 3,6 trln. AQSH dollaridan oshgan. Tematik obligatsiyalar 2012-2015-yillarda umumiy qiymati 132 mlrd. AQSH dollariga teng miqdorda, 2016-2019-yillarda umumiy qiymati 894 mlrd. AQSH dollari miqdorida, 2020-2022-yillarda umumiy qiymati 2,6 trln. AQSH dollaridan ortiq bo'lgan miqdorda chiqarilgan. Qiziqarli jihati shundaki, 2012-2019-yillar oralig'ida chiqarilgan tematik obligatsiyalarning umumiy qiymati 1,0 trln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, oxirgi uch yil, ya'ni 2020–2022-yillarda umumiy qiymati 2,6 trln. AQSH dollariga teng bo'lgan tematik obligatsiyalar muomalaga chiqarilgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tematik obligatsiyalar chiqarilishi 2012-2019-yillarga qaraganda 2020–2022-yillarda 2,6 barobarga o'sgan. Bu holat global miqyosda "yashil", ijtimoiy, barqaror va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan loyihalar va faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro kapital bozorlarida investorlarning qiziqishlari ortayotganligidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Barqaror iqtisodiy o'sish modeliga o'tish bu borada global boshqaruv institutlariga ma'lum bir makro ko'rsatkichlardan tarkib topgan yangi reyting tizimini joriy qilishni talab qiladi. Mazkur reyting asosida global boshqaruv institutlari ushbu yo'nalishda o'zlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish asosida barqaror rivojlanish yo'lida mamlakatlarning erishayotgan muvaffaqiyatlarini baholash imkoni yuzaga keladi. Ayrim davlatlar tomonidan barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlar, ya'ni global va xalqaro hamkorlik borasida shartnoma shartlarini bajarmaslik, buzish yoki ularga mensimaslik holatlari kuzatilganda, bunday davlatlarga ta'sir choralari qo'llash mumkin bo'ladi.
2. Mamlakatimizda davlat ishtirokidagi korxonalarning ekologik javobgarligini yanada oshirish zarur. Xususan, davlat ishtirokidagi korxonalarga ESG tamoyillarga asoslangan investitsiyalar kiritilishini rag'batlantirish maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan davlat ulushi bor korxonalar uchun xalqaro standartlarga muvofiq nomoliyaviy hisobotlarni majburiy topshirish mexanizmini yo'lga qo'yish lozim.
3. Xalqaro miqyosdagi tartibga solish va bozor qoidalarining o'zgarishi ESG konsepsiyasining paydo bo'lishiga olib keldi. Mazkur konsepsiya o'z navbatida biznesni yuritish va investitsiya kiritishda yangicha yondashuvni yuzaga keltirdi. Xususan, xalqaro tajribada institutsional investorlar tomonidan kompaniyalarning xo'jalik va investitsiya faoliyatiga atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy va boshqaruv omillari hamda ular bilan bog'liq risklar va imkoniyatlarning singdirilishi qo'llab-quvvatlanmoqda. Xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan tajribadan kelib chiqib, mamlakatimiz korporativ tuzilmalarida ESG konsepsiyasini joriy qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.
4. Dunyo miqyosida 2012–2022-yillarda "yashil", ijtimoiy, barqaror va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan toifaga oid chiqarilgan obligatsiyalar umumiy hajmi 3,6 trln. AQSH dollaridan oshgan. Bunday tematik obligatsiyalar chiqarilishi 2012–2019-yillarga qaraganda 2020–2022-yillarda 2,6 barobarga o'sgan. Bu holat global miqyosda "yashil", ijtimoiy, barqaror va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan loyihalar va faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro kapital bozorlarida investorlarning qiziqishlari ortayotganligini dalolatlaydi. Mazkur tendensiya mamlakatimiz hukumati va korporativ tuzilmalariga barqaror moliyalashtirish vositasi sifatida "yashil", ijtimoiy, barqaror va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan obligatsiyalarni xalqaro kapital bozorlarida joylashtirish orqali katta hajmdagi mablag'larni jalb qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Иваницкий В. П., Петренко Л. Д. Развитие ответственных инвестиций в соответствии с концепцией устойчивых финансов. Journal of New Economy. 2020, Vol. 21, No. 4, —P. 63.
2. Галазова С. С. Влияние ESG-факторов на устойчивое развитие компаний и финансовую результативность корпоративного сектора // Вестник РГЭУ РИНХ. —2018. № 4 (64). —С. 81–86.
3. Иваницкий В. П., Габышев Д. Н., Зубкова Л. Д. Управление индивидуальным подоходным обложением: новые возможности// Управленец. 2019. —Т. 10, № 5. —С. 41–51. DOI: 10.29141/22185003-2019-10-5-5.
4. Shuitu Qian, Wenzhe Yu, Green finance and environmental, social, and governance performance, International Review of Economics & Finance, Volume 89, Part A, 2024, Pages 1185-1202, ISSN 1059-0560, <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1059056023003386>
5. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/280911488968799581/pdf/113237-WP-WhoCaresWins-2004.pdf>.
6. <https://cgi-russia.ru/> ESG 2022: актуальные риски и новые возможности для устойчивого развития компаний. 10.11.2022. -74 с.
7. <http://www.worldbank.org/sustainablefinanceadvisory>. SOVEREIGN GREEN, SOCIAL AND SUSTAINABILITY BONDS: Unlocking the Potential for Emerging Markets and Developing Economies.
8. https://unpri.org/ESG/definitions_for_responsible_investment_approaches_final_256878.pdf.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.